

NOYOB MADANIY MEROS OBYEKTлари TARIXDAN SO‘ZLOVCHI MASKAN
SIFATIDA

Usmonova Gulnoza Jaxongirovna
QK DM yetakchi ilmiy xodimi

Annotatsiya: O‘zbekiston hududi ming - minglab noyob madaniy yodgorliklarga ega va shu bilan birga o‘zida ko‘plab sir sinoatlarni saqlaydigan moddiy madaniy merosiga egadir. Ushbu yodgorliklarni ziyorat qilish istagida butun dunyo aholisining qiziqishi baland. Shu sababli bugun bu kabi noyob memoriy yodgorliklarni asrab avaylash va kelajak avlodga bus butun xolda yetkazish dolzarb masaladir.

Аннотация: На территории Узбекистана расположены тысячи уникальных памятников культуры, и в то же время имеется материальное культурное наследие, хранящее множество тайных искусств. Люди со всего мира заинтересованы в посещении этих памятников. Поэтому сегодня актуальным является вопрос сохранения таких уникальных памятников и передачи их будущим поколениям.

Abstract: The territory of Uzbekistan has thousands of unique cultural monuments, and at the same time, it has a material cultural heritage that preserves many secret arts. People from all over the world are interested in visiting these monuments. Therefore, today it is an urgent issue to preserve such unique memorials and pass them on to future generations.

Kalit so‘zlar: Memoriy obidalar, temuriylar davri, Tillakori, Shohi zinda majmuasi, moddiy madaniy meros, Gaaga konvensiyasi.

Ключевые слова: мемориальные памятники, период Тимуридов, Тиллакори, комплекс Шахи-Зинда, материальное культурное наследие, Гаагская конвенция.

Key words: Memorial monuments, Timurid period, Tillakori, Shahi Zinda Complex, tangible cultural heritage, Hague Convention.

Kirish

Qadimiy va navqiron zaminimiz o‘zining 3 ming yillik tarixi va o‘tmishiga ega bo‘lish bilan o‘sha davrdan so‘zlovchi noyob ashyolarga boyligi bilan ham butun dunyo diqqat e‘tiboridadir. Shuni ta’kidlash joizki, noyob ashyolar yurtimiz tarixi va uning qadimiyligidan so‘zlaydi. Dunyoda eng ko‘p moddiy-madaniy yodgorliklariga ziyon etishi, vayron bo‘lishi asosan ikkinchi jahon urushi yillarida yuz berdi.

Muhokama

XX asr ikkinchi yarmida turli diniy, milliy, etnik nizolar, ekstremizm va terrorizm xavfi xalqaro miqiyosda ushbu masalaga e‘tibor qaratishni taqozo qila boshladi. Ushbu maqsaddan kelib chiqqan holda, 1954-yilda 21-apreldan 14-maygacha Yunesko tashabbusi bilan Gaaga shahrida 56 ta davlat ishtirokida xalqaro konferensiya bo‘lib o‘tdi. Xalqaro konferensiyada “Qurolli to‘qnashuvlar paytida madaniy boyliklarni muhofaza qilish to‘g‘risida” Gaaga konvensiyasi qabul qilindi. Konvensiya qo‘shilgan davlatlar tinchlik davrida, mojaro va bosib olinish davrida ham nafaqat o‘z hududlarida, balki boshqa ishtirokchi davlatlar hududida joylashgan madaniy boyliklarga hurmat ko‘rsatishni va himoya qilishni o‘z zimmalariga oladilar. 1954 yil 21-mayda Gaaga konvensiyasi bilan birga Birinchi protokol qabul qilindi. Birinchi protokol faqat ko‘char madaniy yodgorliklar (haykallar, rasmlar, turli ko‘chma eksponatlar) ga nisbatan qo‘llaniladi. Birinchi protokol 1-moddasiga ko‘ra ko‘char mulkni bosib olingan hududdan olib chiqib ketish ta’qiqlandi, shuningdek nizolar tugallangandan so‘ng uni asl hududga qaytarish belgilab qo‘yildi. [1] Gaaga konvensiyasi va uning birinchi protokolidagi kamchiliklar XX asrning 80-90 yillardagi dunyodagi beqaror siyosiy vaziyat tufayli yaqqol ko‘zga tashlandi. Natijada 1999 yil mart oyida Ikkinchi Protokol qabul qilindi va Gaaga konvensiyasi va uning birinchi protokoliga qaraganda madaniy boyliklarni ko‘proq himoya qilish ta’minlandi. Xalqaro qonunlarda mojaro ishtirokchilariga madaniy yodgorliklarga hujum qilish, ularga qarshi

har qanday dushmanlik harakati sodir etish va ulardan harbiy maqsadlarda foydalanish ta'qiqlandi. Bundan tashqari, ularning o'g'irlanishi yoki talon-taroj qilinishiga yo'l qo'ymasliklari va vandalizm harakatlarini to'xtatishlari shart ekanligi belgilab qo'yildi.

Mamlakatimizda madaniy tarixiy yodgorliklarni asrash bo'yicha huquqiy-normativ hujjatlar qabul qilinib, tizimli ishlar rejalashtirilmogda va amalga oshirilmogda. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, tegishli qonunlar va qonun osti hujjatlari bu boradagi ishlarda muhim dasturil amal hisoblanadi. Xususan, "O'zbekiston Respublikasining Madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish to'g'risida"gi hamda "Arxeologiya merosi obyektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish to'g'risida"gi qonunlarida bu boradagi ishlarni tashkil etishning huquqiy mexanizmlari aniq belgilab berilgan. O'zbekiston Respublikasida 2001-yil 30-avgustda "Madaniy meros obyektlarni muhofaza qilish va ulardan foydalanish" O'zbekiston Respublikasining qonuni qabul qilindi. Ushbu Qonunning maqsadi O'zbekiston xalqining umummilliy boyligi bo'lmish madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish sohasidagi munosabatlarni tartibga solishdan iborat [3]. Prezidentimizning 2018-yil 19-dekabrda "Moddiy madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish sohasidagi faoliyatni tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" qarori bu borada yangi bosqichni boshlab berdi. Bugungi kunda mamlakatimizda 8210 ta moddiy madaniy meros ko'chmas mulk obyekti davlat muhofazasiga olingan. Ulardan 4788 tasi arxeologiya, 2265 tasi arxitektura obyekti, 625 tasi monumental san'at asari hamda 530 tasi diqqatga sazovor joylar hisoblanadi. Ma'lumotlarga ko'ra, so'nggi vaqtlarda madaniy meros obyektlarida amalga oshirilayotgan ta'mirlash, restavratsiya ishlari davomida buyurtmachi, pudratchi, loyihachi, ekspertiza tashkilotlari tomonidan obyektlarning tarixiy va badiiy qimmatiga juda ko'p miqdorda zarar yetkazish holatlari kuzatilgan.

Bunday yodgorliklar insoniyat ma'naviyati rivojlanishida juda katta ahamiyatga ega bo'lib, jamiyat ma'naviyati davlat yuksak taraqqiyotining muhim sharti va kafolati hisoblanadi. Jamiyat ma'naviyati birdan paydo bo'lmaydi, u kishilik taraqqiyotining barcha bosqichlarida uning ehtiyojlari tufayli vujudga keladi. Ma'naviyat yangidan yaratilmaydi, balki mavjud ma'naviy merosga tayanadi. Tarixiy yodgorliklar, me'moriy obidalar xalq ma'naviyati shakllanishida asosiy rol o'ynaydi. Ma'naviyat bizga etib kelgan qadriyatlar, tajribalar tufayli boyitiladi. Kelajak avlod tarixni o'rganishorqaligina kelajakka nazar sola oladi. Moddiy-madaniy obyektlar insoniyat rivojlanish evolyutsiyasini aks ettiradi va insoniyatga tajriba o'rganishi uchun xizmat qiladi. Tarixni o'rganish orqali insoniyat yashash tajribasiga ega bo'ladi. Yana shuni alohida ta'kidlashimiz lozimki, inson harakatlari orqali moddiy-madaniy yodgorliklarning yo'q bo'lishi va vayron bo'lishiga asosiy sabablaridan biri ilmsizlikdir. Madaniy merosni saqlab qolish qanchalik muhimligini tushunmaydigan yoki tushunishni istamaydigan insonlar harakati tufayli butun dunyo jabr ko'rmoqda. "Moddiy-madaniy merosning har bir elementi, har bir arxeologik obyekti tarixiy butunlikning bo'g'ini bo'lib, o'zining tarixiy –madaniy ahamiyatiga ko'ra birlashgan va yagonadir. Ularning yo'qotishlarini qaytarib bo'lmaydi. Binobarin, madaniy merosni asrab-avaylash har bir xalqning huquqi va burchidir, chunki jamiyat qiyofasi bunyodkorlik manbai bo'lgan qadriyatlarda namoyon bo'ladi" [4]

Tarixga nazar solsak, yurtimiz hududini bir qancha xorijiy tarixchilar sayyohlar va olimlar o'rganishgan. Xususan, sharqshunos A.Vamberi esdaligida Samarqand shaxrining ko'rki va tarovati haqida gap ketadi. Vamberi Samarqand shaxrining uzoqdan ko'rinishini, hamda o'ziga hosligini real tuyg'ular orqali ifodalaydi. "Yaqinlashayotganingizda avval maftunkor kichkina gumbaz ko'rinadi, so'ng janubda yana balandrog'i Birinchisi qabr, ikkinchisi esa-Temur masjidi. To'g'ridan to'g'ri sizning oldingizda shaxarning janubi-g'arbiy chekkasida, tepalikda, qal'a joylashgan. Uning atrofida boshqa binolar, masjidlar va qabr toshlarini ko'rish mumkin. Bularning barchasini bog'larning zich ko'klamzorlarida tasavvur qiling, shunda siz Samarqand xaqida g'ira - shira fikrga ega bo'lasiz", chunki forscha maqolada shunday deyilgan: "Inson nafaqat eshitish, ko'rish, balki his etishi ham kerak."

Samarqandga tashrif sharqshunos uchun ayni muddao edi. Uning tadqiqot obyekti endi “Sayqali ro‘yi zamin” ga qaratilgan edi. Samarqand o‘zining hozirgi ko‘rinishiga qaramay, Markaziy Osiyodagi boshqa shaxarlarga qaraganda boyroq”. Uning esdaligida quyidagi arxitektura yodgorliklari haqida to‘xtalib o‘tilgan:

Hazrati Shohi Zinda. Ushbu avliyoning asl ismi Qosim bin Abbos. U shaxs islomni Samarqandga olib kelgan arablarning boshlig‘i sifatida juda hurmatga sazovor. Uning qabri shaxar tashqarisida, uning shimoli - g‘arbiy qismidagi devor yonida buyuk Temurning yozgi qarorgohi bo‘lib xizmat qilgan va o‘zining oldingi xashamatini saqlagan binoda joylashgan. Yuqoriga ko‘tarilib, o‘zingizni kichik bog‘ning oxirida joylashgan binoda ko‘rasiz. Bir nechta tor zallar katta xonaga olib boradi va undan o‘ng tor yo‘l avliyoning qadimiy qabriga olib boradi. Binoning masjid vazifasini bajargan ushbu qismidan tashqari, boshqa xonalar ham mavjud. Ularda turli rangli g‘ishtlar va mozaikalareng ajoyib ranglar bilan porlaydi, xuddi kechagina usta qurib bitkazgandek.[5]

Masjidi Temur (Temur masjidi). Ushbu masjid shaxarning janubiy qismida joylashgan bo‘lib, uning kattaligi va hashamatli bezaklari (rangkli g‘ishtlar) AbbosII Isfaxonda qurishni buyurgan Masjidi Shohga juda o‘xshaydi, ammo gumbaz, Fors, masjididan farqli o‘laroq, qovun shaklida. Qur‘ondan oltin harflar bilan suralar yozilgan yozuvlar, men ko‘rganlarning eng chiroylisidir, biroq Sultoniya xarobalaridagi yozuvlardan tashqari.

Ark (qal‘a). Qal‘a anchagina mustahkam qurilgan bo‘lib, u ikki qismga bo‘linadi: ichki va tashqi.[6] Tashqi qismida xususiy kvartiralar, ichki qismida esa amir saroyi joylashgan. Garchi saroy menga avvalida ko‘p jihatdan ajoyib tuyulgan bo‘lsada, deyarli yuz yil muqaddam qurilgan bu oddiy uyning qiyofasida qiziq narsani topmadim. Dastlab ular menga amirning xonalarini ko‘rsatdilar. Ulardan biri Oynaxonalar. Nometall parchalari bilan ishlangan ushbu xona dunyoning ajabtori deya hisoblanadi, ammo bu menga Talari-Temur (Temurning ziyofat zali) deb nomlangan xonadan ham kamroq qiziqish uyg‘otdi. Bu yopiq gallereya bilan o‘ralgan uzun tor xovli. Uning old tomonida mashxur ko‘ktosh, ya‘ni amir uchun taxt vazifasini bajargan ko‘k tosh joylashgan.

Turbati Temur (Temurning qabri maqbarasi) [7]shaharning janubi- sharqida joylashgan. U yerda devor bilan o‘ralgan, muhtasham gumbazli chiroyli maqbara mavjud. Baland darvozalarning ikkiala tomonida katta gumbazlarga o‘xshash ikkita kichkina devor bor va devor bilan maqbara oralig‘ida daraxtlar ekilgan u bog‘ bo‘lishi kerak edi, ammo hozir bularning barchasi daxshatli xarobadek ko‘rinadi.maqbara kirish qismi sharqdan, uning peshtoqi reja bo‘yicha Makka (qibla) tomonga burilgan. O‘rtada gumbaz ostida, sharafli joyda Makkaga qaragan ikkita qabr bor. Ulardan biri ikkiga bo‘lingan va quyuq yashil rangli tosh ko‘rinishida. (Tosh nega bo‘linib ketgani haqida ko‘plab hikoyalar mavjud). Bu Temurning qabri. Boshqa tomonda huddi shu uzunlikdagi, ammo biroz kengroq qora tosh mavjud. Bu Temurning ustoz Mir Sayid Barakaning qabri, uning yoniga minnatdor ulug‘ amir dafn etilgan katta-kichik bir qancha odamlar bor, ammo, agar yanglishmasam keyinchalik ular shaxarning turli qismlaridan bu yerga ko‘chirilgan. Fors va arab tillaridagi qabr toshlari hech qanday sarlavhasiz, hatto amir qabridagi yozuv ham juda sodda, hamma joyda faqat “Ko‘ragon” so‘zi yozilgan.[8] Maqbara ichki bezashiga kelsak juda mukammal va yorqin moviy lazurga ega mohirona ijro etilgan arabesklar chindan ham ajoyibdir. Hammaning ko‘ziga tegishi uchun turbotning [9] etagida ko‘k yuzada oq harflar bilan: “Isfaxonlik Mahmudning o‘g‘li bechora Abdulloh tomonidan tayyorlangan” deb yozilgan. Sana topilmadi. Ushbu binodan yuz qadam narida yana bir gumbaz ko‘tarilgan, me‘morchiligi sodda ammo qadimiyroq.

A.Vamberining Samarqanddagi madrasalar haqidagi faktlari ham diqqatga sazovordir. “Samarqandda hali ham yaxshi saqlangan madrasalar mavjud, boshqalari bo‘sh va tez oradaxarobaga aylanadi. Eng yaxshi saqlanib qolgan madrasalar Sherdor va Tillakori bo‘lib, ular Temur davridan ancha keyin qurilgan”.[10] tillakori madrasasi oltin bilan bezatilgan, shuning uchun uning nomi “oltindan qilingan” degan ma‘noni anglatadi. U 1028 (1618)-yilda Islomni

qabul qilgan Yalangtosh Ismli boy qalmoq tomonidan qurilgan.[11] Uning “xonaqoh” deb nomlangan qismi, haqiqatdan ham shu qadar boy bezatilganki, undan faqat Imom Rizoning masjidi o‘tib ketishi mumkin. Ushbu madrasalar qarshisida Temurning nabirasi, astronomiyani ishtiyoqli sevuvchi, o‘zining nomi bilan atashlarini buyurgan Mirzo Ulug‘bek madrasasi joylashgan. Ushbu binoda dunyoga mashxur rasadxona joylashgan bo‘lib, uning qurilishi 832 (1442)-yilda G‘iyosiddin Jamshid, Muayyid Koshoni va Isroil olimi Silah ad-Din Bag‘dodiy boshchiligida boshlanib, Ali Qushchi rahbarligida qurib bitkazilgan. A.Vamberi rasadxona, hamda, “Bibixonim” me‘moriy obidasiga ham ta‘rif beradi. “Menga rasadxona joylashgan joyni ko‘rsatishdi, lekin men u yerdan faqat bir nechta izlarni topishim mumkin edi. Ushbu uchta madrasa Buxorodagi Registondan kichikroq, ammo do‘konlar va doimiy g‘uvillashgan olomon bilan to‘ldirilgan Samarqandning asosiy maydonini yoki Registonni tashkil qiladi. Ulardan bir oz uzoqlikda, Darvozai-Buxoro yaqinida, Temurning rafiqasi atab qurilgan ajoyib Madrasai-Xonim (Bibixonim) joylashgan. Balandligi 100 futdan oshiq (pishtak)[12] baland ingichka frontal binoga ega xarobalar uning avvalgi ulug‘vorligidan dalolat beradi”.

Natija

Memoriy yodgorliklar bugungi kunda ham o‘z xashamatini yo‘qotmagan. Sirli tarix bilan bugungi kundagi yoshlarni tarix faniga va tarixiy shaxslarning kuch qudrati bilan tanishtirishda shu kabi me‘moriy obidalar katta yordam beradi. Sababi o‘sha davr muhiti haqida so‘zlay oladigan tarixiy yodgorliklar shu kunga qadar ko‘plab urushlarni ko‘rgan bo‘lsa-da mustaqilligimiz sharofati bilan qayta tiklanib rekonstruksiya qilinib kelinmoqda. Shu bilan birga yangidan yangi innovatsiyalardan keng foydalangan xolda tarixiy inshootlardagi ashyolar va tarixiy shaxslar portretlari jonlantirish va ular haqida ko‘proq ma‘lumot olish maqsadida keng qo‘llanilmoqda. 3D formatda instalyatsiyalar va portretlarni NAZZAR ilovasi orqali jonlantirish bugun ommalashmoqda. Bu esa har bir tashrifchiga qulaylik tug‘diradi. Muzeylar yoki tarixiy obidalarining muzeylashtirilgan qismlarida bu kabi innovatsion texnologiyalardan keng foydalanilmoqda.

Xulosa

Ushbu tadqiqotchi faoliyatining eng ajablanarlisi shundaki, uning ingliz josusi ekanligini safari yakuniga qadar hech kim sezmagandir. Bu borada Buxoro va amirligining shuningdek, Samarqand shahrining XIX asrdagi me‘moriy obidalarini tavsifini yoritishda Armani Vamberi o‘z iste‘dod hamda imkoniyatlarining maksimal foydalangan deyish o‘rinlidir. Tarix sahifalarida ko‘plab elchilar tashrif buyurib ham Temuriylar davridagi memorchilik, shaxarsozlik, madaniyat, san‘at, ta‘lim va barcha sohada eng yuqori cho‘qqida rivojlanganligini ko‘rish imkonini bergan. Shunday ekan shunday tarixiy madaniy yodgorliklarga boy o‘lkada faqat ezgu ishlarni amalga oshirish ilmiy o‘rganish, tariximizdan faxrlanib, memoriy yodgorliklarni asrab avaylash va rekonstruksiya qilish kabi ulug‘vor vazifalar bilan shug‘ullanishimiz zarur.

Adabiyotlar:

- 1.Shermatovich, U. N., & Ramonovich, Y. Z. (2021). THE USE OF GIS TECHNOLOGY IN RECORDING AND CREATING A DATABASE OF AGRICULTURAL LAND IN BULUNGUR DISTRICT. *Innovative Technologica: Methodical Research Journal*, 2(11), 30-39.
- 2.Ilmurodova, L. A., Umirzakov, Z. T., & Mirzayev, P. J. (2023). Development of a Methodology for Mapping the Cadastre of the World of Plants Using Geoinformation Systems. *Web of Synergy: International Interdisciplinary Research Journal*, 2(2), 288-292.
- 3.Ibragimov, L. T., Raximov, U. A., Yarkulov, Z. R., & Ortiqov, J. U. (2022). Improvement of the State Water Cadastre’s Management System. *INTERNATIONAL JOURNAL ON HUMAN COMPUTING STUDIES*.

4. Abdullayevich, R. U. B. (2022, June). MODDIY MADANIY MEROS OBYEKT LARI DAVLAT KADASTRI BO'YICHA TEMATIK QATLAMLARINING ATRIBUTIV MA'LUMOTLARINI YARATISH. In " ONLINE-CONFERENCES" PLATFORM (pp. 8-12).
5. Армини Вамбери Путишествие по Средний Азии-Москва Восточная литература.2003-95.
6. Армини Вамбери Кўрсатилган асар Б-99
7. Rahimova M Usta sangtaroshlar "Moziydan sado" Toshkent 2015 b-43.
8. В.В.Бартольд (Сочинения Т 2 ч 2 М.,1964)
9. Bartold V.V Asarlar II jild 2-qism b 444,446// Musulmon uyg'onish davri Moskva 1966,- B.308
10. Арминий Вамбери Путишествие по Средний Азии -Москва «Восточная литература»2003-С.101
11. Samarqand tarixi. Toshkent.-B 298-300.
12. Pishtak- fors tilidan kelib chiqqan islom me'morchiligining elementi. U ikki minora bilan chegaralangan.